BUXORO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

# BUXORO VILOYATINING DEMOGRAFIK HOLATI



2023-yil yanvar-dekabr

# BUXORO VILOYATINING DOIMIY AHOLISI

*2024- yil 1- yanvar holatiga, dastlabki ma'lumotlar*

***Demografiya statistikasi*** *– ijtimoiy-iqtisodiy statistikaning sohalaridan biri bo'lib, aholi soni, tarkibi, aholi yoki uning guruhlari joylashuvi va takror hosil bo'lishi bilan bog'liq ma'lumotlarni statistik usullardan foydalangan holda yig'ish, qayta ishlash, ifodalash va tahlil qilish faoliyati bilan shug'ullanadi;*

*Buxoro viloyatida* ***2024- yil 1- yanvar*** *holatiga doimiy aholi soni* ***2044,0 ming kishi****ni tashkil etib, yil boshidan* ***34,3 ming kishi****ga yoki* ***1,7 %*** *ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni* ***753,8 ming kishi****ni (jami aholi sonidagi ulushi* ***36,9 %****), qishloq aholisi soni* ***1 290,2 ming kishi (63,1 %)****ni tashkil etdi.*




***Doimiy aholi*** *– ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turgan, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi;*

## Doimiy aholi soni

**2044,0** *ming kishi*

## Tabiiy o‘sish

**+37,8** *ming kishi*

## Doimiy aholining yashash joyi bo‘yicha taqsimlanishi

*2024- yil 1- yanvar holatiga*

### Shahar



**36,9%**

### Qishloq



**63,1%**

## Doimiy aholi soning taqsimlanishi

*2024- yil 1- yanvar holatiga*



### Erkaklar

**50,1%**

**1 024,9** *ming kishi*

### Ayollar

**49,9%**

**1 019,1** *ming kishi*



# Buxoro viloyati hududlari bo‘yicha doimiy aholi soni

*2024- yil 1- yanvar holatiga*

## Hududlar kesimida doimiy aholi soni, *ming kishi*

| | | |
|---|---|---|
| Buxoro sh. | 294,5 | 101,8 % |
| Kogon sh. | 64,7 | 101,6 % |
| Olot | 104,3 | 101,5 % |
| Buxoro | 178,4 | 102,0 % |
| Vobkent | 148,7 | 101,9 % |
| G‘ijduvon | 322,5 | 101,7 % |
| Kogon | 84,6 | 102,4 % |
| Qorako‘l | 171,8 | 101,2 % |
| Qorovulbozor | 19,9 | 102,1 % |
| Peshku | 131,2 | 101,8 % |
| Romitan | 151,4 | 101,7 % |
| Jondor | 185,5 | 101,8 % |
| Shofirkon | 186,5 | 101,2 % |

Hududlar bo‘yicha doimiy aholisi soni eng ko‘p G‘ijduvon tumanida **322,5** ming kishi, Buxoro shahrida **294,5** ming kishi, Shofirkon tumanida **186,5** ming kishi, eng kam aholi soni Qorovulbozor tumanida **19,9** ming kishi, Kogon shahrida **64,7** ming kishi va Kogon tumanida **84,6** ming kishini tashkil etgan.

## Doimiy aholisi soni eng ko‘p bo‘lgan *shahar/shaharchalar*

| | |
|---|---|
| G‘ijduvon sh. | 50,3 |
| Qorako‘l sh. | 25,7 |
| Vobkent sh. | 20,5 |
| Romitan sh. | 17,2 |
| Gala Osiyo sh. | 16,1 |

Doimiy aholisi soni eng ko‘p G‘ijduvon shahrida **50,3** ming kishi, Qorako‘l shahrida **25,7** ming kishi, Vobkent shahrida **20,5** ming kishi, Romitan shahrida **17,2** ming kishi va Gala Osiyo shahrida **16,1** ming kishini tashkil etgan.

## Doimiy aholisi soni eng kam bo‘lgan *shahar/shaharchalar*

| | |
|---|---|
| O‘zbekiston sh-cha | 2,4 |
| Qirtay sh-cha | 2,5 |
| Mahallai-Mirishkor sh-cha | 2,5 |
| Kosari sh-cha | 2,6 |
| G‘ulomte sh-cha | 2,6 |

Doimiy aholisi soni eng kam O‘zbekiston shaharchasida **2,4** ming kishi, Qirtay shaharchasida **2,5** ming kishi, Mahallai-Mirishkor shaharchasida **2,5** ming kishi, Kosari shaharchasida **2,6** ming kishi va G‘ulomte shaharchasida esa **2,6** ming kishini tashkil etgan.

## Tug‘ilishda kutilayotgan umr davomiyligi

*2023- yil holatiga*



**74,5** *yosh* **76,2** *yosh*

2023-yilning 1-yanvar holatiga Buxoro viloyati aholisining kutilayotgan o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi **75,4** yoshni tashkil etgan. Erkaklar uchun **74,5** yoshga, ayollar uchun esa **76,2** yoshga teng. Shahar va qishloq joylar uchun kutilayotgan o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi bir xil, ya’ni **75,4** yoshni tashkil etgan.

***Tug‘ilishda kutilayotgan umr davomiyligi*** *– tug‘ilgan (0 yoshdagi) insonlarning kutilayotgan o‘rtacha umr ko‘rish yillari soni. Bunda ushbu ko‘rsatkich hisoblangan yildagi yoshlar bo‘yicha o‘lim darajasi saqlanib qoladi deb hisoblanadi;*

## Aholi sonining yosh guruhlari bo‘yicha taqsimlanishi

*2024- yil 1- yanvar holatiga*




2024- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, viloyat doimiy aholisi sonining **29,5** % i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, **57,4** % i mehnatga layoqatli yoshdagilar va **13,1** % i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

***Mehnatga layoqatli yoshdagi aholi soni*** *– Mehnat Kodeksiga muvofiq 16 yoshdan 60 yoshgacha bo‘lgan erkaklar va 16 yoshdan 55 yoshgacha bo‘lgan ayollardan tashkil topadi (16 yoshgacha bo‘lgan bolalar va o‘smirlar mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, 60 yosh va undan katta erkaklar hamda 55 yosh va undan katta ayollar mehnatga layoqatli yoshdan kattalar toifalariga ajratiladi);*

## Buxoro viloyati bo‘yicha aholi zichligi

*2024- yil 1- yanvar holatiga, 1 kv.km.ga to‘g‘ri keladigan aholi soni, kishi*




Buxoro viloyatida 2024- yil 1- yanvar holatiga 1 kvadrat kilometrga o‘rtacha **50,8** kishi to‘g‘ri kelgan. Bu esa o‘tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **0,9** kishiga ortgan (*2023- yilda 1 kv.km.ga 49,9 kishi*).

Hududlar bo‘yicha qaraydigan bo‘lsak, aholi zichliginig eng yuqori ko‘rsatkichi Buxoro shahrida **4 207,1** kishi, Kogon shahrida **3 235,0** kishi, Vobkent tumanida **512,8** kishi, Kogon tumanida **169,2** kishini, Buxoro tumanida **135,2** kishi tashkil etgan bo‘lsa, eng past ko‘rsatkichlar Qorovulbozor tumanida **9,0** kishi, Peshku tumanida **15,0** kishi, Qorako‘l tumanida **19,8** kishi, Olot tumanida **32,3** kishi, Jondor tumanida **35,9** kishi, Shofirkon tumanida **50,1** kishini tashkil etgan.

***Aholi zichligi*** *– muayyan hududdagi doimiy aholining umumiy sonini shu hudud maydoniga nisbati orqali aniqlanadi;*

## Buxoro viloyati hududlari bo‘yicha qayd etilgan tug‘ilishlar

*2023- yil yanvar- dekabr*

### Hududlar kesimida tug‘ilganlar soni va koeffitsiyenti, *kishi*




Hududlar bo‘yicha tug‘ilish eng yuqori G‘ijduvon tumanida 7 830 kishi, Buxoro shahrida 7 286 kishi, Shofirkon tumanida 3 714 kishi, eng kam ko‘rsatkich Qorovulbozor tumanida **394** kishi, Kogon shahrida **1 302** kishi va Kogon tumanida **2 083** kishini tashkil etgan.

### Tug‘ilish koeffitsiyenti eng yuqori bo‘lgan *shahar/tumanlar*

| | |
|---|---|
| Vobkent | 25,4 ‰ |
| Buxoro sh. | 25,0 ‰ |
| Kogon | 24,9 ‰ |
| G‘ijduvon | 24,5 ‰ |
| Jondor | 23,5 ‰ |

Tug‘ilish koeffitsiyenti eng yuqori Vobkent tumanida **25,4** promille, Buxoro shahrida **25,0** promille, Kogon tumanida **24,9** promille, G‘ijduvon tumanida **24,5** promille va Jondor tumanida **23,5** promilleni tashkil etgan.

### Tug‘ilish koeffitsiyenti eng past bo‘lgan *shahar/tumanlar*

| | |
|---|---|
| Qorovulbozor | 20,0 ‰ |
| Shofirkon | 20,0 ‰ |
| Kogon sh. | 20,3 ‰ |
| Romitan | 20,7 ‰ |
| Buxoro | 21,7 ‰ |

Tug‘ilish koeffitsiyenti eng kam tuman, shaharlardan Qorovulbozor tumanida **20,0** promille, Shofirkon tumanida **20,0** promille, Kogon shahrida **20,3** promille, Romitan tumanida **20,7** promille va Buxoro tumanida **21,7** promilleni tashkil etgan.

## Buxoro viloyatida tirik tug‘ilganlar

*2023- yil yanvar- dekabr*






### Jinslar kesimida taqsimlanishi

**O‘g‘il bolalar** — *52,1 %* — **24,3** *ming kishi*

**Qiz bolalar** — *47,9 %* — **22,3** *ming kishi*

### Shahar va qishloq joylar bo‘yicha taqsimlanishi

**Shahar**



*39,9 %* — **18,6** *ming kishi*

**Qishloq**



*60,1 %* — **28,0** *ming kishi*

2023- yil yanvar- dekabr oylarida tirik tug‘ilganlar soni **46,6** ming kishini tashkil etdi, shundan o‘g‘il bolalar soni **24,3** ming kishini, qiz bolalar soni **22,3** ming kishi, tug‘ilganlar soni shahar joylarida **18,6** ming kishini, qishloq joylarida **28,0** ming kishini tashkil etdi.

### Oylar bo‘yicha taqsimlanishi, *kishi/ulushi*

| | O‘g‘il bolalar | Qiz bolalar |
|---|---|---|
| **Yanvar- mart** | 52,2 % — 5 140 | 47,8 — 4 708 |
| **Yanvar- iyun** | 52,0 % — 10 558 | 48,0 % — 9 731 |
| **Yanvar- sentabr** | 52,1 % — 17 768 | 47,9 % — 16 366 |
| **Yanvar- dekabr** | 52,1 % — 24 275 | 47,9 — 22 342 |

Hisobot yilida eng ko‘p qayd etilgan tug‘ilishlar soni **avgust** oyida qayd etilgan **4 754** nafar bo‘lib, aksincha, eng kam tug‘ilishlar esa **fevral** oyida **2 983** nafar qayd etilgan.

## Tug‘ilishlarning chaqaloqlar soni bo‘yicha taqsimlanishi

*2023- yil yanvar- dekabr*




2023- yilning yanvar - dekabr oylarida qayd etilgan egizak tug‘ilgan chaqaloqlar soni bo‘yicha tahlil etilganda quyidagi ulushga ega bo‘lganligi kuzatildi: 1 nafar tug‘ilganlar **97,7 %** ni 2 nafar egizak tug‘ilganlar **2,2 %** ni 3 nafar va undan ortiq egizak tug‘ilganlar **0,1 %** ni tashkil etdi.

## Ota-onasining yoshi bo‘yicha tug‘ilganlarning taqsimlanishi

*2023- yil yanvar- dekabr*




2023- yil yanvar-dekabr oylarida tug‘ilgan chaqaloqlar otasining yoshi bo‘yicha **4,6** % chaqaloqlar otasining yoshi 25 yoshgacha, **80,6** % ining otasi 25-39 yoshlarga hamda **14,8** % chaqaloqlarning otasi 40 yosh va undan katta yoshdagilar hissasiga to‘g‘ri kelgan. Shuningdek, tug‘ilgan chaqaloqlar onasining yoshi bo‘yicha **37,4** % chaqaloqlar onasining yoshi 25 yoshgacha, **55,5** % ining onasi 25-39 yoshlarga hamda **7,1** % chaqaloqlarning onasi 40 yosh va undan katta yoshdagilardan iborat bo‘lgan.

# Buxoro viloyati hududlari bo‘yicha qayd etilgan o‘limlar

*2023- yil yanvar- dekabr*

**Hududlar kesimida o‘limlar soni va koeffitsiyenti,** *kishi*




Hududlar bo‘yicha vafot etishi eng yuqori Buxoro shahrida **1 536** kishi, G‘ijduvon tumanida **1 342** kishi, Qorako‘l tumatida **839** kishi va Shofirkon tumanida **813** kishi, eng kam ko‘rsatkich Qorovulbozor tumanida **74** kishi, Kogon tumanida **333** kishi va Kogon shahrida **363** kishini tashkil etgan.

**O‘lim koeffitsiyenti eng yuqori bo‘lgan** *shahar/tumanlar*

- Kogon sh. — **5,7 ‰**
- Buxoro sh. — **5,3 ‰**
- Qorako‘l — **4,9 ‰**
- Olot — **4,5 ‰**
- Shofirkon — **4,4 ‰**

O‘lim koeffitsiyenti eng yuqori bo‘lgan Kogon shahrida **5,7** promille, Buxoro shahrida **5,3** promille, Qorako‘l tumanida **4,9** promille, Olot tumanida **4,5** promille **va** Shofirkon tumanida **4,4** promilleni tashkil etgan.

**O‘lim koeffitsiyenti eng past bo‘lgan** *shahar/tumanlar*

- Buxoro — **3,6 ‰**
- Vobkent — **3,7 ‰**
- Romitan — **3,7 ‰**
- Qorovulbozor — **3,8 ‰**
- Jondor — **3,8 ‰**

O‘lim koeffitsiyenti eng kam bo‘lgan Buxoro tumanida **3,6** promille, Vobkent va Romitan tumanlarida **3,7** promille, Qorovulbozor va Jondor tumanlarida **3,8** promilleni tashkil etgan.

## Buxoro viloyati bo‘yicha qayd etilgan o‘limlar
*2023- yil yanvar- dekabr*






### Jinslar kesimida taqsimlanishi

**Erkaklar** — *54,5 %* — **4,8** *ming kishi*

**Ayollar** — *45,5 %* — **4,0** *ming kishi*

### Shahar va qishloq joylar bo‘yicha taqsimlanishi

**Shahar**



*46,6 %* — **4,1** *ming kishi*

**Qishloq**



*53,4 %* — **4,7** *ming kishi*

2023- yil yanvar-dekabr oylarida vafot etganlar soni **8,8** ming kishini tashkil etdi, shundan erkaklar soni **4,8** ming kishini, ayollar soni **4,0** ming kishi, vafot etganlar soni shahar joylarida **4,1** ming kishini, qishloq joylarida **4,7** ming kishini tashkil etdi.

### Oylar bo‘yicha taqsimlanishi, *kishi/ulushi*

| | Erkaklar | | Ayollar | |
|---|---|---|---|---|
| Yanvar- mart | 55,9 % | 1 217 | 44,1 % | 960 |
| Yanvar-iyun | 54,8 % | 2 291 | 45,2 % | 1 888 |
| Yanvar-sentabr | 54,8 % | 3 596 | 45,2 % | 2 961 |
| Yanvar-dekabr | 54,9 % | 4 807 | 45,1 % | 3 951 |

Hisobot yilida eng ko‘p qayd etilgan vafot etganlar soni **fevral** oyida qayd etilgan **907** nafar bo‘lib, aksincha, eng kam vafot etganlar esa **yanvar** oyida **579** nafar qayd etilgan.

## O'limning asosiy sabablari bo'yicha taqsimlanishi

*2023- yil yanvar- dekabr, kishi*

***O'lim sabablari*** *– o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasalliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari;*







2023- yilning yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan o'lim holatining **67,1** % i – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **9,9** % i – o'simtalardan, **3,9** % i – nafas olish a'zolari kasalliklaridan, **5,0** % i – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, **3,6** % i – ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, **0,7** % i – yuqumli va parazitar kasalliklardan, **9,8** % i boshqa kasalliklardan vafot etganlar.

# Buxoro viloyati hududlarida qayd etilgan nikohlar

*2023- yil yanvar- dekabr*

**Hududlar kesimida nikohlar soni va koeffitsiyenti**, *birlik*




Hududlar bo‘yicha nikohlar soni eng yuqori G‘ijduvon tumanida **2 516** kishi, Buxoro shahrida **2 259** kishi, Jondor tumanida **1 542** kishi, eng past ko‘rsatkich Qorovulbozor tumanida **129** kishi, Kogon shahrida **333** kishi va Kogon tumanida **689** kishini tashkil etgan.

**Nikoh koeffitsiyenti eng yuqori bo‘lgan** *shahar/tumanlar*

| | |
|---|---|
| Jondor | **8,4 ‰** |
| Peshku | **8,4 ‰** |
| Kogon | **8,2 ‰** |
| Shofirkon | **8,2 ‰** |
| Vobkent | **8,1 ‰** |

Nikoh koeffitsiyenti bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Jondor va Peshku tumanlarida **8,4** promille, Kogon va Shofirkon tumanlarida **8,2** promille va Vobkent tumanida **8,1** promilleni tashkil etgan.

**O‘lim koeffitsiyenti eng past bo‘lgan** *shahar/tumanlar*

| | |
|---|---|
| Kogon sh. | **5,2‰** |
| Qorovulbozor | **6,5 ‰** |
| Buxoro | **7,0‰** |
| Romitan | **7,1 ‰** |
| Olot | **7,4 ‰** |

Nikoh koeffitsiyenti bo‘yicha eng past ko‘rsatkich Kogon shahrida **5,2** promille, Qorovulbozor tumanida **6,5** promille, Buxoro tumanida **7,0** promille, Romitan tumanida **7,1** promille va Olot tumanlarida **7,4** promilleni tashkil etgan.

# Buxoro viloyatida qayd etilgan nikohlar

*2023- yil yanvar- dekabr*

**Yillar bo‘yicha taqsimlanishi,**
*ming birlik*




**O‘sish sur’ati,**
*% da*




2023- yil yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan nikohlar soni 15,7 ming birlikni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 0,5 birlikka kamaygan. Har 1000 aholiga nikoh koeffitsiyenti 7,8 promilleni tashkil etgan hamda o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 0,3 promillega kamayganligi kuzatildi.

**Shahar va qishloq joylar bo‘yicha taqsimlanishi**




2023- yil yanvar-dekabr oylarida nikoh qurganlarning soni **15,7** mingtani tashkil etdi, shundan shahar joylarida **6,1** mingtani **(38,9 %)**, qishloq joylarida **9,6** mingtani **(61,1 %)** tashkil etdi.

**Oylar bo‘yicha taqsimlanishi,**
*birlik/ulushi*

**Shahar** **Qishloq**

**Yanvar- mart**




**Yanvar- iyun**




**Yanvar- sentabr**




**Yanvar- dekabr**




Hisobot yilida eng ko‘p qayd etilgan nikoh qurganlar soni **noyabr** oyida **1 882** nafar aksincha, eng kam nikoh qurganlar esa **iyun** oyida **862** nafarni tashkil etgan.

# Buxoro viloyati hududlari bo‘yicha qayd etilgan nikohdan ajralishlar

*2023- yil yanvar-dekabr*

## Hududlar kesimida nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti, *birlik*




Hududlar bo‘yicha nikohdan ajralishlarning soni eng yuqori Buxoro shahrida **619** kishi, G‘ijduvon tumanida **367** kishi, Shofirkon tumanida **198** kishi, eng kam ko‘rsatkich Qorovulbozor tumanida **21** kishi, Peshku tumanida va Kogon shahrida **103** kishini tashkil etgan.

## Nikohdan ajralish koeffitsiyenti eng yuqori bo‘lgan *shahar/tumanlar*

| | |
|---|---|
| Buxoro sh. | 2,1 ‰ |
| Kogon | 1,7 ‰ |
| Kogon sh. | 1,6 ‰ |
| Olot | 1,2 ‰ |
| G‘ijduvon | 1,1 ‰ |

Nikohdan ajralish koeffitsiyenti bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Buxoro shahrida **2,1** promille, Kogon tumanida **1,7** promille, Kogon shahrida **1,6** promille, Olot tumanida **1,2** promille va G‘ijduvon tumannida **1,1** promilleni tashkil etgan.

## Nikohdan ajralish koeffitsiyenti eng past bo‘lgan *shahar/tumanlar*

| | |
|---|---|
| Romitan | 0,7 ‰ |
| Peshku | 0,8 ‰ |
| Jondor | 0,9 ‰ |
| Qorako‘l | 1,1 ‰ |
| Shofirkon | 1,1 ‰ |

Nikohdan ajralish koeffitsiyenti eng past bo‘lgan Romitan tumanida **0,7** promilleni, Peshku tumanida **0,8** promilleni, Jondor tumanida **0,9** promilleni, Qorako‘l va Shofirkon tumanlarida **1,1** promilleni tashkil etgan.

# Buxoro viloyati bo‘yicha qayd etilgan nikohdan ajralishlar

*2023- yil yanvar- dekabr*

**Yillar bo‘yicha taqsimlanishi,**
*ming birlik*




**O‘sish sur’ati,**
*% da*




2023- yil yanvar-dekabr oylarida **2,5** mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti 1,2 promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan 0,1 promillega kamayganligi kuzatildi (2022- yil yanvar-sentabr oylarida 1,3 promille bo‘lgan).

**Shahar va qishloq joylar bo‘yicha taqsimlanishi**




2023- yil yanvar-dekabr oylarida nikohdan ajralishlarn soni **2,5** mingtani tashkil etdi, shundan shahar joylarida **1,3** mingtani, **(52,0 %)**, qishloq joylarida **1,2** mingtani **(48,0 %)** tashkil etdi.

**Oylar bo‘yicha taqsimlanishi,**
*birlik/ulushi*




Hisobot yilidagi eng ko‘p qayd etilgan nikohdan ajralishlar soni **yanvar** oyida **256** nafar aksincha, eng kam nikohdan ajralishlar esa **oktabr** oyida **181** nafarni tashkil etgan.

## Nikohdan ajrashganlarning farzandlar soni bo‘yicha taqsimlanishi

*2023- yil yanvar-dekabr*




2023- yil yanvar-dekabr oylarida viloyatda jami nikohdan ajrashganlarning **46,8** % i farzandsiz, **28,6** % i bitta farzand bilan va **24,6** % i ikki va undan ortiq farzand bilan ajrashganlar hissasiga to‘g‘ri kelgan.

## Nikohdan ajrashganlarning o‘rtacha yoshi




Nikohdan ajrashganlarning o‘rtacha yoshi 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida erkaklar uchun **36,0** yoshni, ayollar uchun **33,0** yoshni tashkil etgan. Nikohdan ajrashganlarning eng katta ulushi **29** yoshlilarga to‘g‘ri kelgan, y’ani jami nikohdan ajrashganlarning **5,4** % ini tashkil etgan.

# Buxoro viloyati bo‘yicha jami ko‘chib kelganlar

*2023- yil yanvar- dekabr*

### Ko‘chib kelganlar soni va koeffitsiyenti, *kishi*




Hududlar bo‘yicha ko‘chib kelish eng yuqori Buxoro shahrida **2 316** kishi, Buxoro tumanida **1 264** kishi va Kogon tumanida **820** kishi, eng kam ko‘rsatkich Olot tumanida **129** kishi, Qorako‘l tumanida **172** kishi va Peshku tumanida **210** kishini tashkil etgan.

### Ko‘chib kelish koeffitsiyenti eng yuqori bo‘lgan *shahar/tumanlar*

- Qorovulbozor — **16,8 ‰**
- Kogon — **9,8 ‰**
- Kogon sh. — **8,4 ‰**
- Buxoro sh. — **7,9 ‰**
- Buxoro — **7,2 ‰**

Ko‘chib kelish koeffitsiyenti eng yuqori Qorovulbozor tumanida **16,8** promille, Kogon tumanida **9,8** promille, Kogon shahrida **8,4** promille, Buxoro shahrida **7,9** promille va Buxoro tumanida **7,2** promilleni tashkil etgan.

### Ko‘chib kelish koeffitsiyenti eng past bo‘lgan *shahar/tumanlar*

- Qorako‘l — **1,0 ‰**
- Olot — **1,2 ‰**
- Jondor — **1,5 ‰**
- Peshku — **1,6 ‰**

Ko‘chib kelish koeffitsiyenti eng kam bo‘lgan Qorako‘l tumanida **1,0** promille, Olot tumanida **1,2** promille, Jondor tumanida **1,5** promille va Peshku tumanida **1,6** promilleni tashkil etgan.

# Buxoro viloyati bo‘yicha jami ko‘chib kelganlar

*2023- yil yanvar- dekabr*

**Yillar bo‘yicha taqsimlanishi,**
*ming kishi*




**O‘sish sur’ati,**
*% da*




**Jinslar kesimida taqsimlanishi**

**Erkaklar** — **Ayollar**



*39,7 %*

*60,3 %*



**3,1** *ming kishi* — **4,7** *ming kishi*

**Shahar va qishloq joylar bo‘yicha taqsimlanishi**

**Shahar** — **Qishloq**



*56,4 %*

*43,6 %*



**4,4** *ming kishi* — **3,4** *ming kishi*

2023- yil yanvar-dekabr oylarida ko‘chib kelganlar soni **7,8** ming kishini tashkil etdi, shundan erkaklar soni **3,1** ming kishini, ayollar soni **4,7** ming kishi, ko‘chib kelganlar soni shahar joylarida **4,4** ming kishini, qishloq joylarida **3,4** ming kishini tashkil etdi.

**Oylar bo‘yicha taqsimlanishi,**
*kishi/ulushi*

| | Erkaklar | | | Ayollar |
|---|---|---|---|---|
| Yanvar- mart | 692 | *37,3 %* | *62,7 %* | 1 163 |
| Yanvar- iyun | 1 474 | *38,5 %* | *61,5 %* | 2 356 |
| Yanvar- sentabr | 3 553 | *41,7 %* | *58,3 %* | 4 964 |
| Yanvar- dekabr | 3 071 | *39,4 %* | *60,6 %* | 4 726 |

Hisobot yilidagi eng ko‘p qayd etilgan ko‘chib kelganlar soni **iyul** oyida **804** nafar aksincha, eng kam ko‘chib kelganlar esa **oktabr** oyida **577** nafarni tashkil qilgan.

## Buxoro viloyati hududlari bo‘yicha jami ko‘chib ketganlar

*2023- yil yanvar- dekabr*

### Ko‘chib ketganlar soni va koeffitsiyenti, *kishi*

| Hudud | Kishi | ‰ |
|---|---|---|
| Buxoro sh. | 2 719 | 9,3 ‰ |
| Kogon sh. | 533 | 8,3 ‰ |
| Olot | 417 | 4,0 ‰ |
| Buxoro | 919 | 5,2 ‰ |
| Vobkent | 670 | 4,5 ‰ |
| G‘ijduvon | 1 750 | 5,5 ‰ |
| Kogon | 618 | 7,4 ‰ |
| Qorako‘l | 874 | 5,1 ‰ |
| Qorovulbozor | 241 | 12,2 ‰ |
| Peshku | 390 | 3,0 ‰ |
| Romitan | 430 | 2,9 ‰ |
| Jondor | 601 | 3,3 ‰ |
| Shofirkon | 1 154 | 6,2 ‰ |

Hududlar bo‘yicha ko‘chib ketish eng yuqori Buxoro shahrida **2 719** kishi, G‘ijduvon tumanida **1 750** kishi va Shofirkon tumanida **1 154** kishi, eng kam ko‘rsatkich Qorovulbozor tumanida **241** kishi, Peshku tumanida **390** kishi va Olot tumanida **417** kishini tashkil etgan.

### Ko‘chib ketish koeffitsiyenti eng yuqori bo‘lgan *shahar/tumanlar*

| Hudud | ‰ |
|---|---|
| Qorovulbozor | 12,2 ‰ |
| Buxoro sh. | 9,3 ‰ |
| Kogon sh. | 8,3 ‰ |
| Kogon | 7,4 ‰ |
| Shofirkon | 6,2 ‰ |

Ko‘chib ketish koeffitsiyenti eng yuqori Qorovulbozor tumanida **12,2** promille, Buxoro shahrida **9,3** promille, Kogon shahrid **8,3** promille, Kogon tumanida **7,4** promille va Shofirkon tumanida **6,2** promilleni tashkil etgan.

### Ko‘chib ketish koeffitsiyenti eng past bo‘lgan *shahar/tumanlar*

| Hudud | ‰ |
|---|---|
| Romitan | 2,9 ‰ |
| Peshku | 3,0 ‰ |
| Jondor | 3,3 ‰ |
| Olot | 4,0 ‰ |
| Vobkent | 4,5 ‰ |

Ko‘chib ketish koeffitsiyenti eng past Romitan tumanida **2,9** promille, Peshku tumanida **3,0** promille, Jondor tumanida **3,3** promille, Olot tumanida **4,0** promille va Vobkent tumanida **4,5** promilleni tashkil etgan.

## Buxoro viloyati hududlari bo‘yicha jami ko‘chib ketganlar

*2023- yil yanvar- dekabr*

### Yillar bo‘yicha taqsimlanishi, *ming kishi*




### O‘sish sur’ati, *% da*




### Jinslar kesimida taqsimlanishi




### Shahar va qishloq joylar bo‘yicha taqsimlanishi




2023- yil yanvar-dekabr oylarida ko‘chib ketganlar soni **11,3** ming kishini tashkil etdi, shundan erkaklar soni **4,8** ming kishini, ayollar soni **6,5** ming kishi, ko‘chib ketganlar soni shahar joylarida **5,8** ming kishini, qishloq joylarida **5,5** ming kishini tashkil etdi.

### Oylar bo‘yicha taqsimlanishi, *kishi/ulushi*




Hisobot yiligida eng ko‘p qayd etilgan ko‘chib ketganlar soni **iyul** oyida **1 227** nafar aksincha, eng kam ko‘chib ketganlar esa **dekabr** oyida **771** nafarni tashkil etgan.

**Doimiy aholi –** ro‘yxatdan o‘tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo‘lib, bunga ushbu hududda doimiy ro‘yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

**Shahar aholisi** – shahar hududlarida, ya’ni me’yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

**Qishloq aholisi** – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

**Tug‘ilish** – tug‘ilish jarayonlarining sodir bo‘lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko‘rsatkich.

**O‘lim sabablari** – o‘limga yoki uning sodir bo‘lishiga ta’sir etgan kasalikklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o‘lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo‘lgan baxtsiz hodisa va zo‘ravonlik holatlari.

**Nikoh** – erkak va ayol o‘rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o‘zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o‘rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro‘yxatdan o‘tkazish natijasida o‘rnatiladi.

**Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish)** – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to‘liq yuridik to‘xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro‘yxatdan o‘tkazilganidan so‘ng bekor qilingan hisoblanadi.

**Ko‘chib kelganlar soni** – ko‘chib kelganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib kelish.

**Ko‘chib ketganlar soni** – ko‘chib ketganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib ketish.

**Aholining migratsion o‘sishi (farqi)** – hisobot davrida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni o‘rtasidagi farqning absolyut miqdori.

**Demografiya va mehnat statistikasi bo‘limi**
*Tel: 71 230-83-16, 65 223-83-37*